

**SAN'AT VA MADANIYAT – MILLIYLIGIMIZ KO‘ZGUSI**

**Samandarova Barno Tozaboy qizi**

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Amudaryo tumanidagi

35-sonli mактабning 11-sinf o‘quvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada so‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida san’at va madaniyat sohasiga qaratilayotgan e’tibor haqida so‘z boradi. Shuningdek muallif ushbu sohani rivojlantirish orqali bugungi kunda erishilayotgan yutuqlar haqida to‘xtalib, san’at va madaniyatning milliy taraqqiyotda tutgan o‘rnini atroflicha yoritib bergen.

**Kalit so‘zlar:** san’at, madaniyat, teatr, musiqa, maqom san’ati, askiya.

**KIRISH**

Bugungi kunda O‘zbekistonda san’at va madaniyatga e’tibor – ijtimoiyislohotlarning bosh mezoni sifatida ko‘rilayotgani hech kimga sir emas. So‘nggi yillarda O‘zbekiston respublikasi hukumati tomonidan chiqarilayotgan farmon va qarorlar bevosita san’at va madaniyat sohasini yanada taraqqiy toptirishga xizmat qiladi. Tarixdan ma’lumki har bir jamiyatning taraqqiyot darajasi o‘sha jamiyatda san’at va madaniyatning rivoji bilan belgilangan. Tarixda yashab o‘tgan har bir hukmdor yoki davlat arbobi o‘z faoliyatida fan, madaniyat va san’at sohasini qadrlagan taqdirdagina u yurtda tinchlik obodonchilik hamda farovonlik bo‘lgan. Zero san’at va madaniyat O‘zbek xalqi, avvalo, yurt yoshlari ongiga milliy istiqlol g‘oyalariga sadoqat, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat, Ona-Vatanga muhabbat tuyg‘ularini singdirishda katta ta’sir kuchiga ega.

**ADABIYOTLAR SHARHI**

So‘nggi yillarda xukumatimiz tomonidan sohaga oid ko‘plab qaror va farmonlar chiqarilib, ularning samarasi o‘laroq mamlakatmizda bu yo‘nalishda ko‘plab yutuqlar ko‘zga tashlanmoqda [1-4]. Shu o‘rinda alohida qayd etish lozimki O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 17 noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi, hamda 2018 yil 6 apreldagi “Xalqaro maqom san’ati anjumanini o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarorlari o‘zbek mumtoz musiqasi tarixida yangi davrni boshlab bergen muhim hujjatlar bo‘ldi. Ushbu qarorlarga asosan 2018 yilning 6 - 10 sentabr kunlari yurtimiz xalqaro “maqom” san’atiga bag‘ishlangan nufuzli tadbiriga mezbonlik qildi.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Ma’lumki, “Folklor san’ati bu–insoniyatning bolalik qo‘shig‘idir”, Xalqdostonlari faqat sevgi-muhabbat tarannumi emas, balki madaniyat, ma’rifat,tarbiya vositasi bo‘lib kelgan. Yozma manbalar bo‘lmagan qadimgi davrlardayoq ajdodlarimiz og‘zaki ijod orqali avlodlarga mardlik, yaxshilik, halollik, vatanparvarlik, do‘stlik ibratini yetkazgan. Shu jihatdan, baxshilar ezgulik elchilari bo‘lgan va hamisha e’zozlangan. Zero, “Baxshilar nafaqat xalq o‘tmishining

aks-sadosi, ayni paytda bugungi kunning ham jarangdor ovozidir". Bugungi globallashuv zamoniga kelib ushbu tarixiy san'at e'tibordan chetda qoldi. Katta baxshilar keksayib, ko'p joylarda bu meros unutilib borayotgan edi. Chunki e'tibor, qiziqish, rag'bat yo'q edi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Surxondaryoda baxshichilik maktabi tashkil etilgani uni asrab-avaylash, yosh avlodga yetkazish uchun yaxshi sharoit yaratdi. 2018 yil 1 noyabr kuni bu sohaga doir yana bir tarixiy qaror "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida"gi PQ-3990 sonli Prezident qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, Surxondaryo viloyatida Xalqaro baxshichilik san'ati festivali ikki yilda bir marta o'tkaziladi, dostonchilik san'atini asrab-avaylash va keng targ'ib qilish, turli xalqlar o'rtasida do'stlik va ijodiy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. O'zbek baxshichilik maktabi dunyoga Ergash Jumanbulbul o'g'li, Islomshoir, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'lkan shoir, Bola baxshi, Esemurat jirov, Sherna baxshi, Mardonaqul Avliyoqul o'g'li, Qodir baxshi Rahimov singari mashhur namoyandalarni yetkazib bergen. Bugungi kunda ana shu ijodiy an'analar ularningizdoshlari bo'lmish Shomurod Tog'aev, Shoberdi Boltaev, Abdunazar Poyonov, Qahhor va Abdimurod Rahimovlar, Qalandar baxshi, Gulnara Allemborgenova, G'ayratdin Otemuratov, Shodmon Xo'jamberdiev, Ilhom Norov kabi o'nlab iste'dodli ijrochilar tomonidan yanada boyitilmoqda. Uni ilmiy jihatdan o'rganib, kelajak avlodga yetkazishda esa atoqli shoir Hamid Olimjon, Hodizarif, Muzayyana Alaviya, Mansur Afzalov, Buyuk Karimiy, Zubayda Husainova singari fan arboblarining hissasi beqiyosdir. Bugungi kunga kelib esa yuqoridagi olimlarning ishlarini To'ra Mirzaev, Mamatqul Jo'raev, Jabbor Eshonqulov, Jalg'as Xushniyozov, Safarboy Ro'zimboev, Shomirza Turdimov, Toshtemir Turdiev, kabi olimlar munosib davom ettirmoqdalar. Ta'kidlash joizki ushbu san'atga bugungi kunda nafaqat o'zbek olimlari balki chet ellik olimlar ham o'z etiborini qaratgan, hozirda o'zbek milliy folklor san'atini chuqr o'rganib, uni dunyo miqyosida keng targ'ib etib kelayotgan koreyalik Ing-Yong O, germaniyalik Karl Rayxil, turkiyalik Fikrat Turkman, Selami Fidakor singari xorijiy olimlar alohida qayd etish joiz.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 18 may 371- sonli qaroriga asosan 2019 yilning 11-13 iyul kunlari Farg'ona viloyatining Marg'ilon shahrida birinchi «Buyuk Ipak Yo'li» Xalqaro Folklor Musiqa festivali o'tkazildi. Ushbu festivalga Eron, Hindiston, Fransiya, Rossiya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Mongoliya, Turkiya kabi xorijiy davlatlardan folklor jamoalari ishtirok etdi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan 14 ta eng namunali folklor jamoalari jumladan Qoraqalpog'istonning "Suvsepar", Andijon viloyatining "Yor-Yor", Buxoro viloyatining "Jondor" va "Sahro sabolari", Jizzax viloyatining "Bog'don gullari", Navoiy viloyatining "Karmana", Surxondaryo viloyatining "Boysun", Toshkent viloyatining "Navro'z", Xorazm viloyatining "Jo'ralar" va "Sara payoon", Farg'ona viloyatining "Kabutar" va "Chodir jamol", Qashqadaryoviloyatining "Voha", Toshkent shahrining "Durdon" kabi folklor jamoalari qatnashib, ularning 200 nafardan ortiq a'zolari o'z hududlariga xos liboslar vaqadimiy kuy-

qo'shiqlar asosida tayyorlangan maxsus dasturlari bilan qatnashdilar. Shuningdek mazkur festivalda Italiya, Germaniya, Fransiya, Kanada, Janubiy Koreya, Malayziya, Rossiya, Hindiston, Turkiya, Tojikiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Yaponiya, Eron, Polsha, Mo'g'uliston, Daniya kabi 20 dan ortiq xorijiy davlatlardan san'at ustalari tashrif buyurdilar. Birinchi marotaba 3 kun davomida o'tkazilgan festival mamlakatimizda nomoddiy madaniy merosni asrab-avaylash, xususan, folklor san'atini rivojlantirish va keng targ'ib qilishga munosib hissa qo'shdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Endilikda Marg'ilonda har ikki yilda bir marta o'tkazilishi rejalashtirilgan mazkur festival san'atga oshufta dillarni birlashtirdi. Shuningdek 80 ga yaqin davlatlardan xorijiy sayyoohlar kelganligi, anjuman tom ma'noda Farg'ona viloyatining turistik salohiyatini yuksaltirish, muqaddas qadamjolarni yanada obod qilish va milliy san'atimizning qudratini dunyoga tarannum etishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

## **XULOSA VA MUNOZARA**

Yuqoridagilardan ko'rindiki bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida san'at va madaniyat sohasiga har doimgidan ham e'tibor katta. O'zbek milliy san'ati va madaniyatini asrab avaylash va uni kelajak avlodga yetkazish O'zbekiston xalqi oldida turgan dolzarb vazifalaridan biridir. Uni amalga oshirish esa millatning har bir ziyoli vakili oldidagi muqaddas burchdir. Zero O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek "Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham albatta bo'ladi".

## **ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. Nazirbekova, S. B., Talipov, N. N., & Jabbarov, R. R. (2019). Described the Educational, Scientific, and Educational Institutions of the Miniature. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 15(2), 364-367.
2. Khamidovich, T. N., Nozimovich, T. N., Ibrohimovna, Y. N., Ravshanovich, J. R., & Kholmuratovich, M. K. (2019). Development of students' creative abilities through teaching "landscape painting". Journal of Critical Reviews. ISSN, 2394-5125.
3. Valiev, A. (2021). About the features of the perspective of simple geometric shapes and problems in its training. Zbirnik naukovix pras SCIENTIA.
4. Bulatov, C. S., & Jabbarov, R. R. (2010). Philosophical and psychological analysis of works of fine arts (monograph). Science and Technology Publishing House.
5. Kholmuratovich, M. K., Mardanaqulovich, A. S., Ravshanovich, J. R., Sharifovna,
6. K. U., & Shodiyevna, B. O. (2020). Methodology of Improving Independent Learning Skills of Future Fine Art Teachers (On the Example of Still Life in Colorful Paintings). International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(05).
7. Jabbarov, R. (2019). Formation of Fine Art Skills by Teaching Students the Basics of

- Composition in Miniature Lessons. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 17(1), 285-288.
8. AXMEDOV, T. (2020). Jamiyat va inson: daxldorlik va yuksalish omillari. Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI.
9. Ochilova, B. (2020). IJTIMOIY JARAYoNLAR FUNKSIONALLASHUVINING MANAVIY ASOSLARI VA OMILLARI. Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI.
10. Axmedov, T. (2020). O‘zbekistonda ma’naviy islohotlar jarayonini televidenieda yoritilishi. Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI.